

QISHLOQ TUMANINING ISTIQBOLDA IJTIMOIIY RIVOJLANISH PROGNOZ KO'RSATKICHLARI

Saburova Nasiba Rozumovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, assistent

saburovanasiba309@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Qoraqolpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani ijtimoiy rivojlanishining hozirgi holati tahlil qilingan. Shuningdek, istiqbolda tuman aholisiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va ularni uy-joylarga bo'lgan talablari prognozi amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy rivojlanish, qishloq tumanlari, xizmatlar sohasi, uy-joy, savdo, sog'liqni saqlash, maktab, model va algoritmlar, prognoz.*

ПРОГНОЗНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ БУДУЩЕГО СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО РАЙОНА

Сабурова Насиба Розумовна

ТУИТ имени Мухаммада ал-Хоразмий, ассистент

saburovanasiba309@gmail.com

Аннотация: В статье анализируется современное состояние социального развития Ходжалинского района Республики Каракалпакстан. Также был сделан прогноз перспектив предоставления социальных услуг жителям района и удовлетворения их жилищных потребностей.

Ключевые слова: *социальное развитие, сельские территории, сфера услуг, жилье, торговля, здравоохранение, школы, модели и алгоритмы, прогнозирование.*

FORECAST INDICATORS OF FUTURE SOCIAL DEVELOPMENT OF A RURAL AREA

Saburova Nasiba Rozumovna

TUIT named after Muhammad al-Khwarizmi, assistant

saburovanasiba309@gmail.com

Abstract: The article analyzes the current state of social development of the Khojaly district of the Republic of Karakalpakstan. A forecast was also made of the prospects for providing social services to residents of the district and meeting their housing needs.

Keywords: *social development, rural areas, services, housing, trade, health care, schools, models and algorithms, forecasting.*

KIRISH

Qishloq tumanlarini ijtimoiy jihatdan rivojlantirish aholi farovonligini belgilovchi asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olganda bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi [1] eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa – bu qishloqda xizmat ko‘rsatish sohaslarining rolini yanada oshirish va xizmatlar tarmolarini aholining hayot sifati va farovonligini yaxshilashga yo‘naltirish zarurligi hisoblanadi.

Qoraqolpog‘iston Respublikasining Xo‘jayli tumani ijtimoiy jihatdan rivojlangan hududlar qatoriga kiradi. Tuman aholisi 2021-yilda 124,7 kishini tashkil etgan va uning uy-joy fondi bilan ta‘minlanganlik darajasi 75% dan yuqori hisoblanadi. Uy-joy fondining 20 foizi jamoat ulushiga, 75,0% esa yakka tartibdagi sektorlarga to‘g‘ri keladi. Aholi jon boshiga uy-joy bilan ta‘minlash me‘yordagi 15,0 kv.mga qarshi 11,2 kv.mni tashkil qiladi. Bunda 2020-yilda butun tuman bo‘yicha etishmayotgan uy-joy fondi 1398,4 ming kvadrat metrga teng bo‘lgan.

Hozirgi bosqichda Xo‘jayli tumanining ijtimoiy rivojlantirishda aholiga turli xizmatlar ko‘rsatish, buning uchun yangi korxonalar tashkil etish, ijtimoiy sohada kichik tadbirkorlik sub‘ektlari sonini ko‘paytirish, iste‘mol bozorini kengaytirish, maishiy xizmat, maktab va aholini uy-joyga bo‘lgan talabini tahlil va prognoz qilish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shularni hisobga olganda Xo‘jaylik tumanining istiqbolda ijtimoiy rivojlanishini tahlil va prognoz qilish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida asosiy o‘rin tutuvchi dolzarb va zaruriy tadqiqotlar qatoriga kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq hududlarini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish muammolariga ko‘plab xorijiy hamda mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari bog‘shilangan. Ular qatoriga M.V. Jadannovning [5] “Innovatsionnoe razvitie selskogo xozyaystva: vyzovy i perspektivy” mavzusidagi maqolasida hududlarda oziq-ovqat xavfsiligini ta‘minlashda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish asosiy omil ekanligi asoslangan. Shuni inobatga olganda qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish yagona samarali yo‘l ekanligini ta‘kidlangan va bu butun hududlarni ijtimoiy rivojlantirish hamda aholi faravonligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatib o‘tgan. Professor Abdel Kadem va boshqa [6] tadqiqotchilar o‘z ishlarida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi

hamda Yaqin Sharq mamlakatlari qishloq hududlari iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishi hamda isloh qilishning ustivor yo‘nalishlari va ularni oshirish yo‘llari tahlil qilingan.

Dotsent F.R. Galimova, M.A. Xudoyorov, A.M. Sadiqovalarning [7] ilmiy ishlarida qishloq hududlari uchun muhim ahaliyatga ega bo‘lgan logistik tizimlarning o‘ziga xos hususiyatlari o‘rganilgan va undan hududlarda foydalanish mexanizmi taklif etilgan.

K.F. Qo‘zievning [8] ilmiy ishida hududlarda suv resurslari etishmasligi hamda tabiiy shart-sharoitlar bilan bog‘lik bo‘lgan so‘g‘origadigan erlarda nomutonositliklar mavjudligi aniqlangan. Shuni hisobga olib muallif O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik hududiy tarqibini takomillashtirish bo‘yicha takliflar bergan. B.X. Qo‘ziboevning [9] tadqiqotlarida xizmatlar sohasini mintaqada ijtimoiy – rivojlantirishining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan hamda ushbu soha tarmoqlarini raqamlashtirish usuli taklif etilgan.

METODOLOGIYA

Qishloq tumanlari ijtimoiy rivojlanishini prognozi tizimli, tarkibiy hamda mantiqiy tahlil yondashuvlariga asoslangan. Tadqiqotda ilmiy umumlashtirish, guruhlash, miqdoriy taqqoslash, iqtisodiy – statistik tahlil hamda ekonometrik modellashtirish usullari ilmiy va imperik baholash usullari sifatida foydalanilgan.

Tadqiqotda ijtimoiy ob‘ektlar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar

$\sum_{i=1}^n a_{ij} x_j = y_i$ – matritsa ko‘rinishdagi axborotlar bazasi yarftilgan.

Shuningdek, asosiy ko‘rsatkichlar bir yoki ko‘p omilli ekonometrik modellar yordamida prognoz qilingan. Ular quyidagilardan iborat:

$$u_i(x) = a_{i1} + a_{i2}x_1;$$

$$U_i(x) = a_{i1} + b_{i2}x_2 + k_{in}x_n;$$

$$y = BK^a\lambda^\beta, (\lambda + \beta = 1).$$

Ushbu modellar hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini 2025-2030 yillar uchun prognoz qilishda foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Statistik ma’lumotlarga qaraganda Xo‘jayli tumanida ja’mi xizmatlar hajmi 2020-yilda 302365,2 mln so‘mga teng bo‘lgan, shundan ijtimoiy soha bo‘yicha bozor xizmatlari 163945,1 mln. So‘mni yoki umumiy xizmatlar hajmining 54,2 foizini tashkil etgan (1-jadval). Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan davrga nisbatan 5,8 foizga o‘sgan. Xo‘jayli tumanida 2020-yilda eng ko‘p xizmat hajmi savdo (106269,0 mln. so‘m) va transport xizmatlarida (54155,3 mln.so‘m) bo‘lgan.

Tumanda shu yili sog‘liqni saqlashda bozor xizmatlar hajmi 3808,1 mln. so‘mga, ta’lim sohasidagi xizmatlar 8296,6 mln. so‘mga, shaxsiy xizmatlar 17737,2

mln. soʻmga teng boʻlgan. Eng kam xizmat hajmi esa meʼmorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi (13814,3 mln. soʻm) va sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar (3808,1 mln. soʻm)ga toʻgʻri keladi.

1-jadval

Xoʻjayli tumanida ijtimoiy faoliyat boʻyicha bozor xizmatlari ishlab chiqarishining oʻsish surʼati (2020 yil)¹

Koʻrsatkichlar	mln.soʻm	oʻsish surʼati,% da	jamiga nisbatan,% da
Xizmatlar – jami	302365,2	105,2	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari boʻyicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	23022,9	109,6	7,6
moliyaviy xizmatlar	29892,5	145,5	9,9
transport xizmatlari	54155,3	100,1	17,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	52970,2	96,2	17,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	10225,1	97,8	3,4
savdo xizmatlari	106269,0	106,1	35,1
koʻchmas mulk bilan bogʻliq xizmatlar	19738,7	90,4	6,5
taʼlim sohasidagi xizmatlar	8296,6	89,3	2,7
sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3808,1	88,4	1,3
ijara xizmatlari	12967,8	98,8	4,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni taʼmirlash boʻyicha xizmatlar	10229,4	85,8	3,4
shaxsiy xizmatlar	17737,2	90,6	5,9
meʼmorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1381,3	89,6	0,5
boshqa xizmatlar	4641,3	112,3	1,5

Xoʻjayli tumani boʻyicha yuqori ulush savdo (35,1%) va transport xizmatlari (17,9%)da qayd etildi. Nisbatan yuqori boʻlmagan ulush meʼmorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,5%), sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,3%) va boshqa xizmatlar (1,5%)da qayd etildi.

Shu bilan bir vaqtda bozor xizmatlari tarkibida (2,7%), yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,4%), shaxsiy xizmatlar (5,9%) va boshqa ijtimoiy xizmatlar ham oʻsib borish tendensiyasiga ega boʻlib, muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu tumanda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan yuqori oʻsish surʼatlari moliyaviy xizmatlar (145,5%), boshqa xizmatlar (112,3%) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (109,6%) da qayd etildi. Uncha yuqori boʻlmagan oʻsish surʼatlari kompyuterlar va maishiy tovarlarni taʼmirlash boʻyicha xizmatlar (85,8%) va sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar (88,4%) da qayd etildi.

Xoʻjayli tumanida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha 2020 yilda yangi korxonalarining 68 (28,1 foiz) tasi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi, 77 (31,8 foiz) tasi savdo, 48 (19,8 foizi) tasi sanoat, 22 (9,1 foiz) tasi kurilish sohalariga toʻgʻri keladi. Shundan 2-

¹ Qoraqolpogʻiston Respublikasi Statistika agentligi maʼlumotlari

jadvalda ko'rsatilgandek, tumanda ijtimoiy sohada ja'mi 2019-2020 – yillarda 174 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan. O'tgan 2020 yilda ulardan 26 tasining foliyati tugatilgan.

2-jadval

Xo'jayli tumanida ijtimoiy sohalarda yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda²

Ko'rsatkichlar	2019 y.		2020 y.	
	Umumiy soni	Ulushi, %	Umumiy soni	Ulushi, %
Jami	93	100,0	81	100,0
shu jumladan savdo	74	38,3	77	31,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15	7,8	2	0,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	1,6	2	0,8

Maishiy xizmatlarni amalga oshirish hajmi 2020 yilda umuman tuman bo'yicha 1443 mln so'mni tashkil etdi. Pullik xizmatlar bu ko'rsatkichning barqaror o'sishini nazarda tutadigan hududiy tizimlarning ijtimoiy rivojlanishini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Qaralayotgan yilda tumanda pullik xizmatlar hajmi 212,7 mlrd. so'mga yoki aholi jon boshiga 1711,2 ming so'mga etdi.

Mavjud ehtiyojlarni hisobga olgan holda Xo'jayli tumani aholisi uchun uy-joy qurilishining rivojlanishini prognozlash va baholash amalga oshirildi. Tumanda aholi soni yildan-yilga ko'payib bormoqda, bu esa aholining uy-joyga bo'lgan talabining oshishiga olib keladi. Buni istiqbolini prgnoz hisob-kitoblarida inobatga olish kerak. Aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyoji bir kishi uchun va umuman aholining hudud bo'yicha talabini prognozlashdan 15 kvadrat metr miqdorida hisoblab chiqilgan. Buning uchun tuman aholi soni 2025-2030 yuillarda o'sishi $\hat{y} = 119,2 + 1,2t + 0,6t^2$ ko'rinishdagi parabola modeli bilan prognoz qilinga ($R^2 = 0,99$) (3-jadval).

3-jadval

Xo'jayli tumani aholisi soni va uy-joylarga bo'lgan talabning prognoz ko'rsatkichlari (ming kishi)

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda 2020 y	Prognoz		2020 yilga nisbatan o'sish, %	
		2025 y.	2030 y.	2025 y.	2030 y.
Aholi soni	124,3	129,3	135,6	104,0	105,1
Uy-joyga bo'lgan talab (1-kishiga 15 m.kv hisobida)	1864,5	1939,5	2034,0	104,0	109,1
Mavjud uy-joy fondi, shu jumladan:	1398,4	1509,6	1791,5	107,9	128,1
ko'p qavatli	280,0	348,2	411,9	124,4	144,1
yakka	1118,4	1161,4	1379,6	103,8	123,4
Bir kishiga ta'minlanganlik (1 kishiga)	11,2	11,5	15,0	79,0	100,0
Etishmayotgan uy-joyga bo'lgan talabning prognozi	466,1	429,9	242,5	92,2	52,0

²Muallif hisob-kitoblari

Tumanda uy-joylarni foydalanishga topshirish hajmi davlat va yakka tartibdagi qurilish sharoitlarida uy-joy fondining mavjudligi asosida belgilanadi. Bu ko'rsatkichlar aholining mavjud soni bilan birgalikda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan me'yoriy ehtiyojdan kelib chiqib baholanadigan uy-joy bilan ta'minlanganlikni aniqlash asosida yotadi. Bunda davlat va individual sektorlar bo'yicha uy-joy fondining mavjud hajmi va me'yoriy ehtiyoj asosida etishmayotgan uy-joyga talab hisoblab chiqiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, uy-joylarni foydalanishga topshirish masalasi ham aholining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ham hududiy tizimlarning uy-joy dasturini qurilish materiallari, kreditlar berish orqali mablag'lar bilan ta'minlash va boshqa imkoniyatlaridan kelib chiqish bilan ishlab chiqilishi mumkin. Umuman tuman bo'yicha uy-joylarni foydalanishga topshirish bo'yicha vazifa ijrochilar va moliyalashtirish manbalari bo'yicha aniqlanadi. Ular davlat investitsiyalari, uy-joy-qurilish majmuasi; individual shartnoma; xususiy korxonalar tomonidan qurish va boshqalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Istiqbolda aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyoji uning soniga mutonasib ravishda o'sadi (3-jadval). Prognozlash davri yillari bo'yicha uy-joyni foydalanishga topshirish bo'yicha vazifalar farqlari tufayli, uy-joy fondining mavjud hajmida ham farqlar mavjud. Xullas, 2025 yilda Xo'jayli tumani aholisining 2020 yilga nisbatan uy-joyga bo'lgan ehtiyoji 4 foizga oshadi va 1939,5 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Ehtiyojning o'sishi asosan aholining ko'payishi bilan bog'liq va 2030 yilda 2034,0 ming kvadrat metrga etishi kutilada, ya'ni 2020 yilga nisbatan u 109,1 foizni tashkil etadi.

Davlat va individual sektorlarda uy-joy fondidan foydalanishning o'sishi bir kishiga uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini oshishiga bevosita ta'sir qiladi. Shunday qilib, agar 2020 yilda 1 kishi uchun real ta'minlanganlik 11,2 kvadrat metrni tashkil etgan bo'lsa, u yildan-yilga ortib boradi va 2025 yilda 11,8 kvadrat metrni, 2030 yilda esa 15,0 kvadrat metrni tashkil qilishi kutiladi.

Xo'jayli tumanida etishmaydigan uy-joy fondi me'yoriy uy-joy ehtiyoji va prognoz qilinayotgan uy-joy fondi orasidagi farq sifatida aniqlanadi. Prognozlarga muvofiq, uy-joy fondining etishmasligi uning mavjudligiga teskari proporsionallikda o'zgaradi va yildan-yilga kamayib boradi. Bunda, agar 2020 yilda etishmayotgan uy-joy fondining hajmi tuman bo'yicha 466,1 ming kvadrat metrni tashkil etgan bo'lsa, u holda 2025 yilda bu ko'rsatkich 36,2 ming kvadrat metrga kamayishi kutiladi, 2030 yilda esa kamayish 223,6 ming kvadrat metrni tashkil etishi mumkin. Bularning barchasi istiqbolda tuman hududiy tuzilmalarida aholi uy-joylarga ehtiyoji va ularning mavjudligi orasidagi farqni sezilarli kamayishini anglatadi.

Yangi O'zbekiston strategiyasi talablari sharoitlarda ijtimoiy rivojlanitirish dasturini ishlab chiqish tamoyillari birinchi navbatda qishloq hududida savdo, maishiy

xizmat ko'rsatish, xalq ta'limi, madaniyat, transport, aloqa va sog'liqni saqlash sohalarini o'z ichiga oladi. Bunda tuman bo'yicha ehtiyojni prognoz qilish 2023-2025 va 2026-2030 yillarni o'z ichiga olgan ikkita davrlarda amalga oshiriladi. Prognoz qilishda savdo sohasi do'konlar tarmog'i, umumiy ovqatlanish korxonalarini, chakana tovar aylanmasining umumiy hajmi va do'konlar tarmog'ining o'sishi bilan ifodalangan. Do'konlarning chakana savdo tarmog'iga bo'lgan me'yoriy ehtiyoji aholi sonining prognozlash va aholini chakana savdo maydonchalari bilan ta'minlanishi me'yorlaridan kelib chiqish bilan aniqlandi. Shu munosabat bilan, ikki yillik davrda, ya'ni 2023-2025 va 2026-2030 yillarga qaraganda do'konlarning chakana savdo tarmog'i o'sishi kutiladi va bu 20698 kvadrat metrni tashkil etishi mumkin (4-jadval).

Prognoz qilinayotgan davrlarda umumiy ovqatlanish korxonalariga bo'lgan ehtiyoj, ularni 10000 kishiga to'g'ri keladigan o'rinlar soni bilan aholi sonini ta'minlash me'yorlarini hisobga olish bilan aniqlandi. Odatda, aholi sonining ortishi bilan umumiy ovqatlanish korxonalariga ehtiyoj ortadi. Agar 2023-2025 yillar davrida yiliga o'rtacha butun tuman bo'yicha o'rinlarga bo'lgan ehtiyoj 1042 tani tashkil etadigan bo'lsa, 2026-2030 yillarda bu ko'rsatkich 1108 o'ringa etishi mumkin.

Pullik xizmatlar narxining oshishi maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmining ko'payishiga bevosita ta'sir qiladi. Prognozlash davrlarida maishiy xizmatlar ko'rsatish hajmi 2021 yilga kelib mos ravishda o'rtacha 194,5% va 232,9% ni tashkil etishi mumkin. Bularning barchasi Xo'jayli tumani aholisiga pullik xizmatlar ko'rsatilishining oshishiga ta'sir ko'rsatmoqda. 2020 yil davomida, tumanda pullik xizmatlar hajmi 152,7 mlrd so'mni tashkil etdi va prognozlashning birinchi davrida 137,8% ga, ikkinchi davrda esa 150,2% ga o'sishi kutiladi.

Aholining jinsi va yosh tarkibi bo'yicha prognozlashga ko'ra, 2023-2025 va 2026-2030 yillar davrlarida yiliga o'rtacha kunduzgi umumiy ta'lim maktablarida o'quvchilar soni mos ravishda 1650 va 1725 kishini etilishi kutiladi, bu 2020 yildagi bu ko'rsatkichda 50,0 va 56,8% ga oshiq hisoblanadi. Bunda tumanning xalq ta'limi muassasalariga ehtiyojlarini qondirilishini baholash uchun umumlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida o'quvchilar va maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qish o'rinlari va maktabgacha muassasalar bilan ta'minlanganlik darajasi ishlatildi. Xo'jayli tumanida umumta'lim maktablari o'quvchilarini o'qish o'rinlari bilan ta'minlanganligi hozirgi kunda 78,8 foizni tashkil etadi.

Tumanni ijtimoiy rivojlantirishning maqsadli kompleks dasturlari ko'rsatkichlarini prognoz natijalariga muvofiq, prognoz davrining ikkinchi bosqichida (2026-2030 yillar) umumta'lim maktablarining o'quvchilarni o'qish o'rinlari bilan 100% ta'minlashga erishish kerak.

4-jadval

**Xo‘jayli tumanini
ijtimoiy rivojlantirishning 2023-2025 va 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan
dasturi ko‘rsatkichlari prognozi³**

Ko‘rsatkichlar	Haqiqatda 2020 y.	Bir yilga o‘rtacha		2020 yilga nisbatan 1 yilga o‘rtacha, %	
		2023- 2025 y.y	2026- 2030 yy.	2023- 2025 yy.	2026- 2030 yy.
<i>Savdo</i>					
Chakana savdo do‘konlari tarmog‘i, kv.m.	215	244	147,5	103,5	115,0
Umumiy ovqatlanish korxonalari, o‘rinlar	1948	2092	2248	107,4	115,4
Chakana tovar aylanmasi umumiy hajmi, mlrd. so‘m	519,0	500	636	115,7	122,5
Do‘konlar tarmog‘i o‘sishi, ming kv.m. savdo maydoni	11,4	30,8	43,3	2,7 m	3,8 m
<i>Maishiy xizmat</i>					
Korxonalar soni, birlikda	123	235	335	1,9m	2,7
Maishiy xizmat realizatsiyasi hajmi, mln.so‘m	2640	5135	6149	194,5	232,9
Aholi jon boshiga maishiy xizmat realizatsiyasi, mln. so‘m	328,1	835,3	943,9	2,5m.	2,9m
<i>Kutubxonalar</i>					
Umumiy kutubxonalar soni	145	165	185	113,8	127,6
<i>Sog‘liqni saqlash</i>					
Tuman qishloqlarida kasalxona joylari soni-ja‘mi	344	395	434	114,7	126,1
Qishloq joylari muassasalari quvvati-ja‘mi	1787	2010	2220	112,5	124,2
Qishloq joylarida dorixonalar soni	20	25	26	125,8	130,7

Qaralayotgan davrlarda madaniyat muassasalari soni ham ko‘payadi, bu ular bilan tuman aholisini ta‘minlashning etarli darajasini ko‘rsatadi. Agar 2025 yilga kelib 1 ta klub hisobiga o‘rtacha yillik aholi soni 1527 kishini tashkil etsa, u holda 2023-2025 va 2026-2030 yillarning besh yillik davrlarida bu ko‘rsatkich mos ravishda 108,4 va 121,9 foizga ortishi kutiladi.

Istiqbolda Xo‘jayli tumanning ijtimoiy rivojlantirish prognozlariga muvofiq, umumiy kutubxonalar soni o‘rtacha yiliga 2026-2030 yillar davrida 185 tani tashkil etishi mumkin. Shu munosabat bilan, bitta ommaviy kutubxonaga to‘g‘ri keladigan aholi soni, ham birinchi, ham ikkinchi prognozlash davrida 2450 kishi darajasida barqaror bo‘lib qoladi, bu esa 2020 yildagi ko‘rsatkichdan mos ravishda 12,6 va 17,4% oshiq hisoblanadi.

Istiqbolda yo‘lovchilar sonining o‘sishi tufayli avtobuslar harakati hajmi sezilarli darajada oshadi. Prognozlashning birinchi va ikkinchi davrlarida 2020 yilga

³ muallif hisob-kitoblari

nisbatan o'rtacha yillik yo'lovchilarni tashish hajmi mos ravishda 214,4 va 266,0 million yo'lovchi-kmga ko'payishi mumkin. Bu davrlarda qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar tufayli tuman aholisini uy telefonlari bilan ta'minlanganlik darajasi oshishi mumkin.

Prognozlarga ko'ra sog'liqni saqlash muassasalari geografik joylashuviga bog'liq ravishda qishloq muassasalari va tuman (shahar) markaziga bo'linadi. Bunda joylashuvidan qat'i nazar, sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishi asosan prognozlash davridan keyingi o'sish yo'nalishiga ega bo'lgan har bir ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Masalan, butun tuman bo'yicha kasalxonalaridagi o'rinlar soni 2020 yildagi 344 ta o'rinlardan prognozlashning birinchi davrida 395 ta o'ringa, prognozlashning ikkinchi davrida esa 434 ta o'ringa, shu jumladan tuman markazida (shaharda) 56 o'rinlardan mos ravishda 65 va 71 ta o'rinlarga ortishi mumkin. Bunda umuman olganda tumandagi ambulatoriya-poliklinika muassasalarining quvvati prognozlashning birinchi davrida yiliga o'rtacha 2010 kishi, ikkinchi davrda bir smenada 2220 kishi tashrif buyurdi. Shunga o'xshash vaziyat Xo'jayli tumani qishloq hududlari bo'yicha sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishning boshqa ko'rsatkichlarini hisoblashda yuzaga keldi.

Xulosa qilib aytish kerakki, tadqiqotda foydalanilgan modellar va algoritmlar ko'rsatkichlarini o'zgartirish bilan hududiy tizimlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni tahlil qilish va prognozlashning har bir omili bo'yicha yangi natijaviy ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin.

Qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini echishga bunday yondashish to'liq darajada modellashtirishning asosiy tamoyillarini amalga oshirishga imkon beradi, u alohida modellar va algoritmlarni yagona tizimga birlashtirish va ular yordamida ko'p variantli hisoblash tajribalarini o'tkazish imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan ishda taklif qilingan uslubiy yondashuv, model va algoritmlar aniq sharoitlar va tadqiqot vazifalarini hisobga olgan holda matematik modellashtirish usullarini ishlab chiqishda ishonchli yordamchi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Aynan shuning uchun ular hududiy tizimlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish, prognozashtirish va boshqarishning zarur tarkibiy qismi va vositasi bo'lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Qishloq tumanlarini ijtimoiy jihatdan rivojlantirishdagi eng muhim vazifa – bu qishloqda xizmat ko'rsatish sohaslarining rolini yanada oshirish va xizmatlar tarmolarini aholining hayot sifati va farovonligini yaxshilashga yo'naltirish zarurligi hisoblanadi.

2. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, Xo'jayli tumanida 2020 yilda 2019 yilga nisbatan xizmatlar ishlab chiqarish o'sish sur'ati 6% teng bo'lgan va bu mintaqa

hududida yuqori ko'rsatkich bo'lib, xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni hamda ular bilimlari oshishi, zamonoviy unumdor texnologiyalarni amalga joriy etish yaxshilanishidir.

3. Tumanda eng ko'p xizmatlar hajmi savdo (35,1%) hamda transportda (17,9%), nisbatan past darajadagi xizmatlar muhandislik, izlanishlari, texnik sinovlar (0,5%) hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarga (1,3%) tug'ri keladi. Tumanda ayrim xizmat sohaslarining ja'mi xizmatdagi ulushlarining kamayishi ushbu tarmoqlar rivojlanishiga investitsiyalar kiritish hamda kadrlar salohiyati pastligi hisoblanadi.

4. Xo'jayli tumani aholisi prognozlarga ko'ra 2025 yilda 2020 yilga nisbatan 4 foizga, 2030 yilga borib esa qo'shimcha 5,1 foizga yoki 124,7 ming kishidan 135,6 ming kishiga ko'payish mo'mkin. Bundan tuman aholisining uy-joyga bo'lgan ehtiyoji shu davrda 4 foizdan 9,1 foizga oshishi kutiladi.

5. Prognoz qilingan ma'mulotlarga ko'ra, tuman ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari barqaror o'sib borishi xususiyatiga ega. Chakana savdo do'konlari 2023-2025 yillarda o'rtacha bir yillarda esa yiliga 15 foizdan o'sib borishi mumkin. Maishiy xizmat korxonalarini soni shu davrlarda 1,9 va 2,7 martaba oshish ehtimoli mavjud. Tuman qishloq joylarida sog'liqni saqlash tizimi ko'rsatkichlari ham 2026-2030 yilda yuqori o'sish tendensiyasini saqlab qolishi kutiladi.

6. Ushbu tadqiqot metodologiyasida taklif etilgan yondashuvdan boshqa qishloq hududlari ijtimoiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek ularni raqamlashtirishda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, PF-60 - sonli.

3. Выступление Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева на Vneochednoy sessii Jokary Kengasha Respubliki Karakalpakstan. 02.10.2020 g.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabrdagi “2020 — 2023 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori PQ-4889 - sonli.

5. Жадан М.В. Инновационное развитие сельского хозяйства: вызовы и перспективы// Экономические отношения. 2019, Т.9, №2.

6. Абдель Кадем и другие. Аграрные реформы в развивающихся странах//Московский экономический журнал. 2016, №3. – С.109-122.

7. Галимова Ф.Р. и другие. Особенности логистических систем в сельском хозяйстве. Республика илмий – амалий анжумани материаллари тўплами. 18.05.2021. - Т.: ТДАУ тахририят – нашриёт бўлими. - С. 8-12.

8. Қўзиёв К.Ф. Региональные особенности развития сельского хозяйства в Узбекистане в условиях дефицита водных ресурсов//Региональная экономика: теория и практика. – 2018. – Т.16. - №4. – С.711-728.

9. Qo‘ziboev V.X. Mintaqada xizmatlar sohasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. 2020. - 28b.

10. Потребности и нужды в регионе Приаралья. Отчет социально-экономического обследования. Нукус, 2017. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru/home/library/poverty/summary-project-report-on-a-socio-economic-survey-of-the-needs> (дата обращения: 02.09.2021).

11. Усманов З.К., Ниязов М.А. Приоритетные направления развития промышленности в Республике Каракалпакстан // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2015. – № 8. – с. 127-131.